

Audit va tegishli xizmatlar fanidan savolnoma

4-kurs Buxgalteriya hisobi va audit

1. Auditorlik faoliyatining predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. Auditda qanday tekshiruv metodlaridan foydalaniladi?
3. Auditning metodini tashkil etuvchi usullar audit jarayonidagi maqsadga ko'ra qanday turkumlanadi?
4. Auditning predmeti va metodi o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
5. Auditning boshqa fanlar bilan aloqadorligi qanday?
6. Tekshiruvda isbot va dalillar olishning necha xil usullarini bilasiz, ularni sanang.
7. Auditorlik faoliyatining asosiy prinsiplari nimalar?
8. Audit moliyaviy nazoratning boshqa shakllaridan qanday farq qiladi?
9. Auditning obyekti nima, subyektlari kimlar?
10. Qanday audit majburiy audit hisoblanadi?
11. Qanday audit tashabbusli audit hisoblanadi?
12. Ichki audit nima?
13. Tashqi audit nima?
14. Auditorlik faoliyatining mohiyatini tushuntirib bering.
15. Auditni vujudga keltirgan shart-sharoitlar nimadan iborat?
16. Auditorlik faoliyati dastlab qaysi mamlakatlarda paydo bo'lgan?
17. O'zbekistonda moliyaviy nazoratni tizimini tushuntirib bering.
18. Auditorlik faoliyati moliyaviy nazorat tizimida qanday ahamiyatga ega?
19. Auditorlik faoliyatining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
20. Auditorlik tashkiloti qanday tashkilot?
21. Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlarini tushuntirib bering.
22. Audit va buxgalteriya hisobi o'rtasidagi farq nimalardan iborat?
23. Audit va taftish o'rtasidagi o'xshashlik va farqli tomonlari nimalardan iborat?
24. O'zbekistonda auditorlik faoliyatini tartibga solish tizimini tavsiflang.
25. Auditorlik faoliyatining standartlari nima?
26. Auditorlik faoliyatining tasnifi (auditorlik tekshiruvi va professional xizmatlar).

27. Majburiy auditorlik tekshiruvini tavsiflang.
28. Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi nima?
29. Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlari tashabbusiga ko'ra audit o'tkazishning xususiyatlari nimalardan iborat?
30. Auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari nimalardan iborat?
31. Auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari nima?
32. Audit Xalqaro Standartlari (AXS) ning mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?
33. AXSga muvofiq auditorlik faoliyatining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
34. Auditorlik tekshiruvining qanday shakllari mavjud?
35. Auditorlik tekshiruvining qanday turlari mavjud?
36. Ichki va tashqi auditning bir-biridan qanday farqlanadi?
37. Majburiy auditorlik tekshiruvi deb nimaga aytiladi?
38. Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi nima?
39. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko'ra o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvining qanday o'ziga xos jihatlari mavjud?
40. Auditorlik tashkilotlarining qanday turdosh xizmatlarni ko'rsatishi mumkin?
41. Auditorlik kasbi oldiga qanday malakaviy talablar qo'yiladi?
42. Auditorlarni sertifikatsiyalash qanday tartibda o'tkaziladi?
43. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash qanday me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi?
44. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash qanday amalga oshiriladi?
45. Auditorlik tashkilotining mustaqilligi nima bilan kafolatlanadi?
46. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berish va litsenziyani bekor qilish tartibi qanday?
47. Auditorlik faoliyatining asosiy ahloq me'yorlarini ayting va ularni tavsiflang.
48. Auditor ishi sifatini nazorat qilish deganda nimani tushunasiz?
49. Auditor ishi sifatini nazorat qilishning qanday shakllarda amalga oshiriladi?
50. Asosiy auditor tomonidan o'z assistentlari ishini nazorat qilish deganda nimani tushunasiz?

51. Auditorlik tashkiloti tomonidan auditor ishini nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?
52. Auditorlik xizmatlarining tashqi nazorati qanday amalga oshiriladi?
53. Auditor ishi sifatini nazorat qilishning qanday yo'nalishlari mavjud?
54. Alohida auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish deganda nimani tushunasiz?
55. Alohida auditorlik tekshiruvini nazorat qilishda qanday tushunchalardan qo'llaniladi?
56. Auditorlik ishi sifatini umumiy nazorat qilish deganda nimani tushunasiz?
57. Auditorlik ishi sifatini umumiy nazorat qilishdada qanday tushunchalar qo'llaniladi?
58. Muhimlik tushunchasi va uning auditdagi ahamiyati nimadan iborat?
59. Muhimlik darajasi qanday aniqlanadi?
60. Nima uchun auditda muhimlik darajasi qo'llaniladi?
61. Auditorlik riski tushunchasini tavsiflang.
62. Auditorlik risklarining maqbul to'plami nima va unga qanday shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatadi?
63. Ichki xo'jalik riskining mazmunini tavsiflang.
64. Nazorat vositalari riskini tavsiflang.
65. Aniqlanmaslik riski nima?
66. Ichki xo'jalik riski va nazorat vositalari riskining turli kombinatsiyalari bilan auditorlik riski o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
67. Muhimlik darajasi va auditorlik riski o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
68. Auditorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va bosqichlarini ta'riflang?
69. Auditorlik faoliyatini rejalashtirishda qanday tamoyillar qo'llaniladi?
70. Mijoz-korxona faoliyatini o'rganish nima?
71. Nima uchun auditni rejalashtirishda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi o'rganiladi?
72. Auditni rejalashtirishda korxona hisob siyosatini o'rganish nima uchun zarur?

73. Ichki nazorat tizimi nima va auditni rejalashtirishda uning ahamiyati?
74. Auditning umumiy rejasi va dasturi qanday tartibda tuziladi?
75. Ichki nazorat tizimi deganda nima tushunasiz?
76. Buxgalteriya hisobi tizimi deganda nima tushunasiz?
77. Auditorlik tekshiruvda ichki nazorat tizimini ahamiyati nimalardan iborat?
78. Korxonalarda ichki nazorat tizimi va buxgalteriya hisobi tizimi elementlari nimalardan iborat?
79. Auditor korxona ichki nazorat tizimini qanday baholaydi?
80. Tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyatini qanday o'rganish mumkin?
81. Buxgalterlik hisobining tashkil etilishini o'rganish qanday amalga oshiriladi?
82. Korxona buxgalteriyasining tashkiliy tuzilmasi, tashkiliy tuzilmada ko'rsatilgan har bir xodimning vazifalari va mas'uliyatlarining bayoni qanday o'rganiladi?
83. Hisob tsiklining muhim uchastkalari bo'yicha hujjatlar aylanish reja-grafigini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
84. Korxona hisob siyosatini o'rganish qanday amalga oshiriladi?
85. Korxona hisob siyosati buxgalteriya hisobini yuritish nustai-nazaridan qanday tekshiriladi?
86. Korxona hisob siyosati soliqqa tortish nustai-nazaridan qanday tekshiriladi?
87. Ichki nazorat tizimini o'rganish qanday amalga oshiriladi?
88. Nazorat muhiti deganda nimalarni tushunasiz?
89. Nazorat amallari deganda nimalarni tushunasiz?
90. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro miqyosda qanday normativ-huquqiy hujjatlar mavjud?
91. Korrupsiya atamasini izohlang.
92. Korrupsiyaga qarshi kurashishning qanday tamoyillari mavjud?
93. Moliviy va hisobot intizomi buzilishining korrupsion risklarini aytib bering.
94. Antikorrupsion audit o'tkazishda ichki moliyaviy nazorat tizimi vositalarini tekshirishning mohiyati va maqsadini tushuntiring.
95. Moliyaviy firibgarlik uchun eng jozibador bo'lgan moddiy va boshqa qiymatliklarni keltiring.

96. Korporativ korrupsiya belgilari aniqlangan holatda auditorning hatti-harakatini izohlang.
97. Korrupsiya belgilari haqidagi ma'lumotlarni audit buyurtmachisiga taqdim etish tartibi va shartlarini bayon qiling.
98. Auditorlik dalillari va ularning turlarini ta'riflang.
99. Auditorlik dalillarini to'plashda qaysi standartlar qo'llaniladi?
100. Auditor uchun qaysi auditorlik dalillari muhimroq hisoblanadi?
101. Auditorlik dalillarini olish manbalari.
102. Auditorlik dalillarini to'plashning eng ko'p qo'llaniladigan usullarini ayting.
103. Auditorlik tanlash tushunchasini ta'riflang.
104. Muvofiqlikni tanlab tekshirishning vazifasi nimadan iborat?
105. Mohiyati bo'yicha tanlab tekshirishning vazifasi nimadan iborat?
106. Tanlab tekshirish usullari qanday hollarda qo'llaniladi?
107. Auditorlik tanlash risklari va natijalarini baholash
108. Auditor qanday hollarda auditorlik dalili sifatida ekspert ishidan foydalanadi?
109. Ekspert xulosasining mazmuni va tuzilishi qanday?
110. Auditorlik tashkilotining ish hujjatlari nimalardan iborat?
111. Auditor ish hujjatlarining majburiy rekvizitlarini ko'rsating.
112. Qaysi holatlarda auditor ekspert ishlaridan foydalanishi mumkin?
113. Auditorlik tekshiruvi vaqtida ekspertni jalb qilish tartibi qanday?
114. Qaysi holatlarda auditor boshqa auditorlar ishlaridan foydalanishi mumkin?
115. Boshqa auditorlar ishlaridan auditor qanday ma'lumotlar olishi mumkin?
116. Auditorlik tekshiruvda jalb qilingan ekspertga nisbatan qanday majburiyatlar yuklanadi?
117. O'tkazilgan audit natijalari qanday umumlashtiriladi va baholanadi?
118. Auditorlik hisoboti nima va uning tarkibi qanday?
119. Auditorlik hisobotining kirish qismida nimalar aks ettiriladi?
120. Auditorlik hisobotining tahliliy qismi qanday natijalarni

- qamrab oladi?
121. Auditorlik hisobotining yakuniy qismi qanday rasmiylashtiriladi?
 122. Auditorlik tashkiloti audit natijalariga ko'ra nimalarga baho beradi?
 123. Auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasida ifodalanadigan fikri qanday turlarga bo'linadi?
 124. Auditorlik xulosasida ijobiy fikr qanday holatda biliriladi?
 125. Modifikatsiyalangan fikr, uning shakllari va xususiyatlari qanday?
 126. Salbiy fikr bildirilgan auditorlik xulosasi qanday holatlarda tuziladi?
 127. Izohlar bilan fikr bildirilgan auditorlik xulosasi qanday holatlarda tuziladi?
 128. Fikr bildirish rad etilgan auditorlik xulosasi qanday hollarda tuziladi?
 129. Auditorlik xulosasiga qaysi holatlarda maxsus qism kiritiladi?
 130. Auditorlik tashkilotining modifikatsiyalangan fikridan kelib chiqib auditorlik hulosasida maxsus qismlar qanday nomlanadi?
 131. Auditorlik xulosasiga tushuntirish qismi qanday maqsadda kiritiladi?
 132. Auditorlik xulosasi nechta nusxada tuziladi va kimlarga taqdim etiladi?
 133. Auditorlik hisobotlari va xulosalarini saqlash uchun kim mas'ul hamda necha yil saqlanishi lozim?
 134. Asosiy vositalar auditining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
 135. Auditor asosiy vositalarni tekshirishda qanday reja tuzishi zarur?
 136. Asosiy vositalar auditida qanday ma'lumot manbalaridan foydalaniladi?
 137. Asosiy vositalarning mavjudligi va saqlanish holati qanday tekshiriladi?
 138. Asosiy vositalar analitik hisobining tashkil etilishi qanday tekshiriladi?
 139. Asosiy vositalar auditida eng ko'p uchraydigan xatolar qanday?

140. Asosiy vositalar harakati bo'yicha muomalalarni tekshirishda auditor nimalarga alohida e'tibor qaratishi zarur?
141. Asosiy vositalar kirimi va chiqimini rasmiylashtirish, scho'tlarda aks ettirish hamda soliqqa tortish qanday tekshiriladi?
142. Asosiy vositalar ijarasi (uzoq yoki qisqa muddatli) qanday tekshiriladi?
143. Asosiy vositalarga eskirish hisoblash to'g'riligi qanday tekshiriladi?
144. Asosiy vositalarni ta'mirlash ishlari qanday tekshiriladi va ularning xususiyatlari nimalardan iborat?
145. Korxona 1 400 000 so'mga aksiyalarni xarid qildi . Aksiyalarning nominal qiymati 1 100 000 so'm . Korxona aksiyalarining ushbu paketi 13 oydan keyin sotishni rejalashtirgan . Aksiyalarning xarid narxi va nominal qiymati orasidagi farq 300 000 so'm (1400-1100) 13 oy mobaynida teng ulushlar bilan hisobdan chiqariladi hamda korxonaning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlar sifatida etirof etiladi.(XTN 3.6 bandi).

Buxgalteriyada quyidagicha yozuvlar qilingan;

- 1) Aksiya xarid qilindi Dt 0610 Kt 5110 1 400 000
- 2) Nominal va xarid qiymat orasidagi farq bir me'yorda hisobdan chiqarildi .

Dt 6990 Kt 0610 23100

Agar korxona tomonidan xarid qilingan aksiyalarning xarid qiymati ularning nominal qiymatidan past bo'lsa ,unda xarid qilish paytidan so'ndirish paytigacha bo'lgan davr mobaynida xarid va nominal qiymatlar orasidagi farq summasini ko'shimcha hisoblash amalga oshiriladi .

Topshiriq: Yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganini tekshiring hamda auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

146. Korxona aksiyalarini nominal qiymati bo'yicha 1500 000 so'mga xarid qildi Olingan aksiyalar o'rniga 1500 000 so'mni tashkil qiladigan yangi nusxa ko'chiruvchi uskuna berildi Buxgalteriyada quyidagicha hisobga olingan .

- 1)Nusxa ko'chiruvchi uskunaning qiymati hisobdan chiqarildi:

Dt 9210 Kt 0140 1500000

- 2) Aksiyalar xarid qilindi:

Dt 0610 Kt 9210 1500000

Topshiriq: Yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganini tekshiring va auditorlik hisoboti uchun malumot tayyorlang.

Korxona tomonidan xo'jalik faoliyatida foydalanish uchun tovar belgisi ishlab chiqildi. Tovar belgisini yaratishda quyidagi xarajatlar qilingan:

- reklama agentligining tovar belgisini yaratishda xizmatlari qiymati – 90 000 000 so'm;
- tovar belgisini intellektual mulk agentligida ro'yxatdan o'tkazish uchun to'langan davlat boji – 312 200 so'm;
- tovar belgisini yaratish bo'yicha agentlikni tanlash va boshqa konsultatsiya xizmatlari uchun "Konsalt-servis" MChJga – 5 000 000 so'm.

Ushbu xo'jalik muomalalariga korxona buxgalteriyasida quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilgan:

a) reklama agentligining tovar belgisini yaratishdagi xizmatlari uchun:

D-t 0420-"Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari" scho'ti – 90 000 000 so'm

K-t 5110-"Hisob-kitob scho'ti – 90 000 000 so'm.

b) tovar belgisini intellektual mulk agentligida ro'yxatdan o'tkazish xarajatlari:

D-t 9430-"Boshqa operatsion xarajatlar" scho'ti – 312 200 so'm

K-t 5110-"Hisob-kitob scho'ti" – 312 200 so'm.

Tovar belgisi 3 mart kuni balansga qabul qilingan hamda mart oyidan boshlab to'g'ri chiziqli usulda amortizatsiya hisoblangan.

Topshiriq:

1. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarishda "Namuna" MChJ tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni hamda ushbu kamchiliklarning moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlang.

- 147.** Kompaniya 2018 yilda 20 000 birlik mahsulotni sotishni rejalashtirgan, tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari yil oxirida 1 000 birlikka teng bo'lishi kerak, 2018 yil boshida tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari 600 birlik bo'lgan. Boshqa qolgan zaxiralar nolga teng.

Qancha tayyor mahsulot birligini ishlab chiqarish kerak?

- 148.** «Prestij» kompaniyasida to'g'ri materiallarning rejali xarajatlari 2 300 000 sh.b., rejali to'g'ri mehnat xarajatlari - 6 000 000 sh.b. va rejali ishlab chiqarish yuklama xarajatlari (ICHYUX) - 1 200 000 sh.b.ga teng. Kompaniya rahbariyati, ICHYUX to'g'ri mehnat soatlariga mutanosib tarzda oshishiga ishonchi komil. To'g'ri mehnatga haq to'lash stavkasi soatiga 25 sh.b. deb faraz qilamiz. **ICHYUX rejali normasi nimaga teng?**

- 149.** Korxona mahsulotning bitta turini ishlab chiqarishni to'xtatmoqchi, bu 55 000 sh.b. miqdorida marjinal daromad keltiradi va unga qayta taqsimlanadigan ishlab chiqarish yuklama xarajatlari (ICHYUX) 77 000 sh.b.ga teng. **Ushbu mahsulot turini ishlab chiqarish to'xtatilgan taqdirda korxonaning umumiy foydasi 8 000 sh.b.ga oshsa, bartaraf etib bo'lmaydigan xarajatlar summasi qanday bo'ladi?**

- 150.** «Dinastiya» kompaniyasining 2019 yil oktyabr uchun

xarajatlari va qoldiqzaxiralari haqida quyidagicha axborot mavjud:

	<i>Summa, sh.b..</i>
Reklama va mahsulotni tarqatishga xarajatlar	83 000
1 oktyabrdagi tayyor mahsulot zaxirasi	54 000
Kompaniya rahbariyatining ish haqi	42 000
Ishlab chiqarish uskunalari amortizatsiyasi	18 000
1 oktyabr va 31 oktyabrdagi tugallanmagan ishlab chiqarish	52 000
Asosiy materiallar	100 000
31 oktyabrdagi tayyor mahsulot zaxiralari	68 000
Ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi	44 000
Boshqa ishlab chiqarish yuklama xarajatlari	69 000

Davr xarajatlari va oktyabrda sotilgan mahsulot tannarxi nimaga teng?

151. Kompaniyaning 2016 yilga mo'ljallangan qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari (CRO) rejalashtirilgan qiymati 28 800 AQSh dollarini, haqiqiy qiymati esa 26 700 AQSh dollarini tashkil etdi. Ishchi kuchini taqsimlash asosiy ish soatlari asosida amalga oshiriladi. 2016 yil uchun asosiy ishlarning haqiqiy soatlari 400. Shu bilan birga, ortiqcha taqsimlangan mehnat xarajatlari miqdori 2280 sh.b. Asosiy mehnatning bir soatiga ishchi kuchini taqsimlashning rejalashtirilgan darajasi qanday?

152. Sotishdan tushgan tushum - 31 000
Sotish qiymati - 23 700

2019 yil 31 dekabr holatiga jami aktivlar
- 12 600
2020-yil 31-dekabr holatiga jami
aktivlar - 13 550
Sof foyda - 5 200

Bunda 2020 yil uchun Kompaniya aktivlarining rentabelligi. foiz sifatida (kasrsiz) bo'ladi:

153. Quyidagi ma'lumotlar minglab sh.b.da mavjud. BRV kompaniyasining joriy aktivlaribo'limida, 2020 yil oxirida:

Aktivlar (joriy va uzoq muddatli)

Uzoq muddatli debitorlik qarzlari - 42 000

Aktsiyalar - 45 800

Xaridorlar va mijozlarning qarzdorligi - 52 300

Boshqa aylanma aktivlar - 21 000

Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari - 23 000

Jami: 184100

Jamiyatning jami qisqa muddatli majburiyatlari: 83100 tani tashkil etdi

2020 yil oxirida joriy likvidlik koeffitsientini hisoblang (natijani kasrgacha yaxlitlash)

154. Kompaniya har chorakda 18 000 so'm miqdorida ijara to'lovlarini to'lashi kerak. uch yil ichida. To'lovlar har chorak oxirida amalga oshirilishi kerak. Ayni paytda kompaniya jamg'armaga yillik 12% stavkada pul mablag'larini kiritish imkoniyatiga ega, murakkab foizlar har chorakda hisoblanadi. Ijara haqini to'lash uchun etarli mablag'ga ega bo'lish uchun kompaniya qancha investitsiya qilishi kerak?

155. Korxona ishlatilgan uskunani sotib oldi, uning qoldiq qiymati 75000 sh.b. Bu uskunaga to'lov sifatida o'zining dastgohini bergan, uning adolatli qiymati 82000 sh.b. sotib olingan uskunani montaj qilishga 2000 sh.b. to'ladi. Uskunaning holati yaxshi, ammo odatda xizmat muddati tugamaguncha sotib yuborilmaydi, shuning uchun uning ishonchli bozor qiymatini aniqlash qiyin. Dastgoh o'rniga sotib olingan uskunaning boshlang'ich qiymatini aniqlash talab etiladi.

156. Quyidagi tarzda aniqlangan to'lovlar pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlang: birinchi yil – tushum 800 sh.b., ikkinchi yil – tushum 500 sh.b., uchinchi yil – to'lovlar 400 sh.b., keyin besh yil davomida - 400 sh.b. dan tushumlar. Diskontlash stavkasi - yillik 10 foiz. Hisob-kitoblarda koeffitsientlar uchun verguldan keyin beshta belgili raqamlarni qo'llash, javoblarni esa (yaniy oraliq) verguldan keyin ikki xonagacha yaxlitlash talab etiladi.

157. 2020 yil uchun pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot tuzish uchun «X» Kompaniyasining buxgalteri (kompaniya moliyaviy muassasa emas) moliyaviy hisobotning quyidagi moddalari bo'yicha pul to'lovlari va tushumlar hisoblangan, ming sh.b.da:

Asosiy vositalarni sotib olish - 2 700
Nomoddiy aktivlarni sotishdan tushumlar 770

Nomoddiy aktivlarni sotib olish - 300

Qarzlarning qaytarilishidan pul mablag'lari tushumi - 290

Moliyaviy ijara majburiyatlari bo'yicha to'lovlar o'tkazildi 450

To'langan dividendlar - 910

To'langan foizlar - 120

Investitsiya faoliyatidan to'langan foyda solig'i -190

Taqdim etilgan axborot asosida buxgalter investitsiyaviy faoliyatdan bir yillik sof puloqimlarini aniqladi, ular nimaga teng:

158. Kompaniya nomoddiy aktivlarni keyingi baholash uchun haqiqiy xarajatlar bo'yicha baholash modelidan foydalanadi. Kompaniya dasturiy taminotining balans qiymati yil boshida 22 000 sh.b.ga teng. Hisobda hisoblangan amortizatsiyaga xarajatlar bir yilga 4 400 sh.b.ni tashkil qildi. Dasturiy taminotning qoplanadigan qiymati yil oxiriga 16 200 sh.b.ni tashkil qiladi. Yil oxirida qanday buxalteriya yozuvlari qilinishi mumkin?

159. Korxona ishlatilgan uskunani sotib oldi, uning qoldiq qiymati 75000 sh.b. Bu uskunaga to'lov sifatida o'zining dastgohini bergan, uning adolatli qiymati 82000 sh.b. sotib olingan uskunani montaj qilishga 2000 sh.b. to'ladi. Uskunaning holati yaxshi, ammo odatda xizmat muddati tugamaguncha sotib yuborilmaydi, shuning uchun uning ishonchli bozor qiymatini aniqlash qiyin. Dastgoh o'rniga sotib olingan uskunaning boshlang'ich qiymatini aniqlash talab etiladi.

160. Quyidagi tarzda aniqlangan to'lovlar pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlang: birinchi yil – tushum 800 sh.b., ikkinchi yil–tushum 500 sh.b., uchinchi yil –to'lovlar 400 sh.b., keyin besh yil davomida - 400 sh.b.dan tushumlar. Diskontlash stavkasi - yillik 10 foiz. Hisob-kitoblarda koeffitsientlar uchun verguldan keyin beshta belgili raqamlarni qo'llash, javoblarni esa (yanii oraliq) verguldan keyin ikki xonagacha yaxlitlash talab etiladi.

161. «Aysberg» Kompaniyasi 2020 yilni moliyaviy hisobotdagi quyidagicha ko'rsatkichlar bilan yakunladi: - savdo va mamuriy xarajatlar amortizatsiyani hisoblaganda - 950 000 sh.b., -amortizatsiya xarajatlari – 89 000 sh.b.,

Olish uchun schyotlar 16 000 sh.b.ga oshdi, Kechiktirilgan

soliq majburiyatlari 9 000 sh.b.ga ko'paydi, Hisoblangan

majburiyatlar 8 000 sh.b.ga kamaydi,

Avans qilib berilgan xarajatlar 6 200 sh.b.ga kamaydi.

Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotda operatsion xarajatlar bo'yicha to'lovlar qanday miqdorda ko'rsatiladi?

162. 2020 yil oxiriga «F» kompaniyasi joriy aktivlarini ajratish haqida quyidagi axborot mavjud, ming sh.b.da:

Aktivlar:

Uzoq muddatli debitorlik qarzi – 45 000

Zaxiralar – 23 800

Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzdorligi zaxirani chegirgan holda – 53 000

Boshqa qisqa muddatli aktivlar – 2 900

Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari – 4 100

Jami aktivlar: 128 800

Kompaniyaning jami qisqa muddatli majburiyatlari: 49 800 sh.b.ni tashkil qildi.

Moliyaviy direktor topshirig'iga ko'ra siz 2020 yil oxiriga joriy likvidlik koefficienti hisoblab chiqdingiz, **u nimaga teng bo'ladi** (natija o'nlik kasrgacha yaxlitlab olinsin).

Fan o'qituvchisi:

doc. Z.K.Tajekeev

Kafedra mudiri:

doc. Z.K.Tajekeev